



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-may holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

23697  
ta.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

23211  
ta.

Yangi tashkil  
etilganlar

2440  
ta.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 2440 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1208 taga ko'pdir.

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3755 ta (19,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 23211 tani tashkil etgan.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)

23697 tani tashkil etdi

17,7 %

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, birlikda




O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati

2019-yilning 1-may holatiga 23697 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 23,6 % savdo, 12,8 % sanoat, 12,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 11,8 % qurilish, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 27,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (5587 ta) savdo, (3035 ta) sanoat, (3025 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (2808 ta) qurilish, (1062 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (856 ta) tashish va saqlash, (542 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (273 ta) axborot va aloqa, hamda (6509 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.



# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **23211** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3755 ta (19,3 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi




Qurilish




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish




Axborot va aloqa



Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Qarshi shahri (4843 ta), Chiroqchi (1911 ta), Koson (1874 ta), Qarshi (1781 ta) va Kitob (1641 ta) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Mirishkor (772 ta), Muborak (836 ta) hamda Nishon (869 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 2440 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1208 taga ko'pdir.

## Yangi tashkil etilgan korxonalarning o'sish sur'ati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (725 ta), sanoat (555 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (361 ta) va qurilish (276 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (49 ta) hamda tashish va saqlash (55 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



361

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



141

Sanoat



555

Axborot va aloqa



17

Qurilish



276

Tashish va saqlash



55

Savdo



725

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



49


Boshqa turlar



261


# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Qarshi shahri (454 ta), Chiroqchi (218 ta), Qarshi (198 ta) va Kasbi (170 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Muborak (68 ta) va Dehqonobod (86 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajada.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)


**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 18516 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda

Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



128 ta

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**


**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,6 % o'sgan.**

**Asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Afg'oniston hissalariga to'g'ri keladi.**


2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 128 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 71 taga yoki 124,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Afg'oniston hissalariga to'g'ri keladi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 99 tasi qo'shma, 29 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Qarshi shahrida 40 ta (jamidagi ulushi 31,3 %), Kitob tumanida 14 ta (10,9 %) va Qarshi tumanida 9 tani (7,0 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Mirishkor 3 ta (2,3 %), Shahrisabz 4 ta (3,1 %), Chiroqchi 4 ta (3,1 %), Yakkabog' tumanlarida 4 ta (3,1 %) hamda Shahrisabz shahrida 3 tani (2,3 %) tashkil etgan.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa axborot va aloqa hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar




## Boshqalar



### 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 40 tani tashkil etgan.


Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 35 taga ko'paygan.



Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 8 ta, Rossiya Federatsiyasi - 7 ta, Turkiya Respublikasi - 5 ta, Eron islom Respublikasi - 5 ta va Qozog'iston Respublikasi - 4 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 27 ta sanoat, 5 ta savdo, 3 ta qurilish, 3 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va 1 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)





*2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 18344 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 19,8 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-aprel oylarida 2234 tadan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 1055 taga ko'proqdir.*



•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng katta  
ulushi


•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng kichik  
ulushi





Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 18344 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5432 ta (29,6 %) - savdo, 2945 ta (16,1 %) - sanoat, 2937 ta (16,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 2720 ta (14,8 %) - qurilish, 1026 ta (5,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 817 ta (4,5 %) - tashish va saqlash, 396 ta (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 258 ta (1,4 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1813 tasi (9,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlar

# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

32,1 %



Sanoat

24,7 %



Qurilish

12,3 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,3 %



Tashish va saqlash

2,5 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

16,1 %



Axborot va aloqa

0,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,5 %




Boshqa turlar

3,8 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 717 ta, sanoat 552 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 359 ta va qurilish 275 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 17 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 33 ta hamda tashish va saqlashda 55 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Qarshi shahri (417 ta), Chiroqchi (203 ta), Qarshi (172 ta) va Kitob (162 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Muborak (63 ta) va Dehqonobod (77 ta) tumanlarida tashkil etilgan.




# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-may holatiga)




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-may holatiga



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,2 % yoki 274 tasi sanoat, 20,2 % yoki 183 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,5 % yoki 159 tasi savdo, 17,4 % yoki 158 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3,2 % yoki 29 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % yoki 14 tasi qurilish, 1,0 % yoki 9 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 8,1 % yoki 73 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Qashqadaryo viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi .  
Tel.:71-230-84-10(11)**